

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi "MUROD-FAYZ BUILDING" MCHJ va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi M.Naraliyev bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi Xo'jaobod tumani 4-yordamchi maxsus maktabi internati va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbar U.Qosimov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning _Qurilish-tamirlash ishlarini bajarib beradi.

II.SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB KITOB TARTIBI.

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan smeta va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda) ga asosan joriy narhlarda **240,000,000.00** (ikki yuz qirq million) so'mni tashkil e'tadi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganida va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3.Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yhatga olingandan so'ng 3 bank ishkunida «Buyurtmachi» bajarilgan ishlar umumiy qiymatining 30 foizini, ya'ni **72,000,000.00** (etmish ikki million) so'mni oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **168,000,000.00** (bir yuz oltmish sakkiz million) so'mni «Pudratchi» tomondan topshirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida 30 bank ishkunida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» ohirgi tanlovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomal arasosida 15 bank ish kunida kechikmagan muddatda o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Pudratchi» ning majburiyatlar Shartnoma imzolangandan so'ng ish bajariladigan ob'ektni «Buyurtmachi» dan dalolatnomaga asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan to'lov jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi va ishlarni bajarish calendar grafigiga asosan 30 kun muddatda ishlarni bajarib topshiradi.

Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta hujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish, hamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiriladi.

3.2. «Pudratchi» ning huquqlari Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to'lashini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda hisob kitob qilishini talab qilish.

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash

3.4. «Pudratchi» dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish

Kamchiliklarni bepul bartaraf e'tilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi harajatlarini qoplanishini talab qilish

«Pudratchi» dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida loyiha hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish.

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarini shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa, majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararini to'laydi.

4.2. «Pudratchi» ob'ektni o'z vaqtida topshirilmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0.5% miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50% dan oshmasligi kerak.

4.3. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4% miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50% miqdoridan oshmasligi kerak.

V. FORS MAJOR HOLATLARI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabii hodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu holatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir e'tsa, tomonlarning javobgarlikdan ozod e'tilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro muhokama yo'llari bilan hal e'tiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'llari bilan hal e'tish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Xo'jalik sudi orqali hal e'tiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy Gaznachilik bo'limida ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

VII. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA TO'LOV MA'LUMOTLARI

«Pudratchi»

«Buyurtmachi»

«MUROD-FAYZ BUILDING» MCHJ

4-yordamchi maxsus maktabi internati

manzil: Andijon shahar Navro'z 23.

manzil: Xo'jaobod t. Imom ota MFY

h'lr: 20208000500870093001

h'lr: 100021860032367092400075002

ATB Qishloqqurilish bank bosh amaliyot bosh.

STIR: 202044247 OKONX: 92310

MFO: 01037 STIR: 305480326

G'azna XV: 23402000300100001010

O'z.R. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

MFO: 00014 STIR: 201122919

Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh.HKKM

Raxbar  M. Noraliyev
imzo

Raxbar  U. Qosimov
imzo

Yurist: _____



STIR: 201122919
OKONX: 92310
202000300100001010
G'aznachiligi
STIR: 201122919
To'lov ma'lumoti